

Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari Orol dengizi qurigan tubi yaylovlari xaritasi uchun patent oldi

O'zR FA Botanika instituti Geobotanika laboratoriyasi xodimlarining "Qoraqalpog'iston Respublikasining o'simliklar qoplami va yaylov resurslarining zamonaviy holatini baholash" mavzusidagi davlat dasturi va boshqa loyihalar doirasida tadqiqot hududiga o'tkazilgan o'nlab ekspeditsiyalar, uzoq yillik dala tadqiqotlari, samarali ilmiy izlanishlari asosida B.A. Adilov, X.F. Shomurodov, F.I. Polvonovlar muallifligida "Orol dengizi qurigan tubi yaylovlari xaritasi" sanoat namunasiga patent olindi.

Sanoat namunasi o'zida Orol dengizi qurigan tubida turg'un shakllangan va shakllanayotgan yaylovlarning holatini aks ettiradi. Bunda, hudud landshaftlari interferentsiyasini hisobga olgan holda 7 sinf, 12 guruh, 18 tip va 81 ta yaylov xillarini o'z ichiga olgan yaylovlarning tasnifi ishlab chiqildi; Orol dengizi qurigan tubida shakllangan yaylovlar, ularning tasnifi va tarqalish maydonlari, mavsumiy hosildorligi, maydonlarining sho'rlanish darajalari, landshaft elementlari kabi atribut ma'lumotlarni o'z ichiga olgan geografik-axborot tizimida ishlab chiqilgan ma'lumotlar bazasi yaratildi; Orol dengizi qurigan tubining 3.2 mln. gektar hududida tarqalgan yaylovlar raqamlashtirildi va 94 ta xarita birliklaridan iborat bo'lgan elektron-raqamli "Orol dengizi qurigan tubining yaylovlari xaritasi" yaratildi.

Elektron-raqamli xarita va uning elektron-raqamli geoaxborot ma'lumotlaridan yashil qoplamalar hosil qilish samaradorligini oshirish, saksavulzorlar ekilishi uchun mos tuproq sho'rlanish darajalari bo'yicha ma'lumotlar olish, Mo'ynoq tumanida chorvachilik ozuqa bazasidan foydalanish tizimini joriy etish, chorva mahsulotlari hisobiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur sanoat namunasidan biologiya, o'rmonchilik, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, tuproqshunoslik sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqotchilar, oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari va talabalari foydalanishi mumkin.

